



Blogerlar nutqida sheva elementlarining o'рни va ta'siri

Sevandikova Sabina Olimovna
GulDU 1-bosqich talabasi

So'ngi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda yoshlar orasida keng ommalashib bormoqda. Blogerlar o'z auditoriyasi bilan erkin muloqotda bo'lish orqali ular o'z nutqlarda sheva va lahjalardan foydalanishadi.

Bunday holatlar blogerlar nutqida samimiy qilish bilan birgalikda ba'zi bir blogerlarning adabiy til me'yoriga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi chunki hozirgi kunda blogerlar orasida adabiy til me'yorlarini buzib gapiradiganlar ham bor. Bundan tashqari, kuzatuvlarga ko'ra tomoshabinlarning aksariyati shevalarini ijobiy qabul qiladi. Ko'plab izohlarda "Sizni eshitish yoqimli", "O'zimizniki bo'lib ketasiz" kabi fikrlarni ham uchratishimiz mumkin va bunday iliq fikrlardan so'ng blogerlar ham o'z ijodlariga iliq munosabatda bo'lishadi.

Tilshunoslik sheva-bu muayyan hududda yashovchi aholining o'ziga xos talaffuzi, so'z boyligi va grammatik shakllari bilan ajralib turadigan til ko'rinishidir. Lahja-bu bir necha shevalar birlashtirgan yirik hududiy til birliklari majmuasi hisoblanadi. Misol uchun, o'zbek tili shimoliy, janubiy, markaziy lahjalarga, ularning har biri esa bir necha shevalarga bo'linadi. Shevalarni o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik farqlar orqali farqlashimiz mumkin.

Blogerlarning asosiy maqsadi- bu tomoshabinlarni va muxlislarini e'tiborini jalb qilish maqsadida har xil shevalardan foydalanib gaplarini yana ta'sirchan qilib ko'rsatishdan iboratdir. Shuning uchun ham ayrim bir blogerlar ijodida har xil shevalarning ba'zi bir so'zlarini farqlash orqali yana o'z auditoriyasini qiziqtirish maqsadida bunday vidiolarni olib chiqadi. Masalan ba'zi bir viloyatlardagi shevalarni farqlash uchun ulardan biror bir so'zni tanlab olishadi va har bir shevaga moslab farqlashadi. Misol uchun chelak so'zini olib qaraydigan bo'lsak, Farg'ona viloyatida "chalak", Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida esa "chilak", Buxoro va Navoiy viloyatida "cholok" yoki "satil", Xorazim viloyatida esa "chillik", Toshkent va Sirxandaryo viloyatlarida "chelak" shaklida ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. Yana qo'shimcha qilib aytganda, Andijonlik blogerlar nutqida "bo'ldi-ey", "qattasan o'zi?" kabi so'zlar; Buxoroliklarda esa "shu joydan chiqmasmi?", "har doim shunqada" kabi iboralar uchraydi. Bundan so'zlar tinglovchining hududiy ohangni eslatib yana, samimiy taassurot uyg'otadi. Qo'shimcha qilib aytish joizki nafaqat so'zlarda va balki blogerlar nutqida shevalarda fonetik o'zgarishlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, "ketayapman" o'rniga "ketvomman", "boryapti"



o'rniga "borvotti" kabi fonetik so'zlarni uchratishimiz mumkin asosan bunday o'zgarishlarni toshkentlik blogerlar nutqida ko'proq tinglashimiz mumkin. O'z hayotidan misol qilib oladigan bo'lsam men 2025-yilda Guliston Davlat Univrsitetiga qabul qilindim va o'qish jarayonda ko'plab shevalarni farqlashni o'rgandim, ba'zida esa so'zlarini tushunasligim ham mumkin chunki Xorazim viloyatining shevasi qolgan viloyatlarniga qaraganda tushunish qiyin ekan. Chunki ularning ba'zi bir so'zlar turkman tiliha ham o'xshab ketadi ammo bunga qaramasdan men ancha o'rganib qoldim va ba'zi bir so'zlarining tallafuzini ham o'rgandim chunki Xorazim shevasi menga yoqib qoldi.

Xulosa qilib aytganda tahlillar shuni ko'rsatadiki blogerlar o'z chiqishlarida turli hududiy shevalarni qo'llash orqali auditoriyaga yaqin, samimiy va tabiiy muloqot muhitini yaratadi. Biroq bu jarayonda blogerlar shevalaridan haddan ziyod foydalanishsa adabiy til me'yorining buzilishiga olib keladi shuning uchun ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Quvonarli tomonlaridan biri esa blogerlar o'z nutqlarida foydalanish orqali shevalarning zamonaviyligini ta'minlab turuvchi shaxs sifatida ko'rishimiz mumkin.

"Har bir sheva-o'zbek tilining jonli ko'rinishidir; ularning har biri xalq ruhi, xalq nutq madaniyatini aks ettiradi"

A. Madvaliyev